

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Sh.I.Nurmuradova**

Texnika oliv o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uni tashkil etilishi .....	439
<b>R.N.Nazimov</b>	
Pedagogik texnologiyalar va xorijiy tajribalarning xorij ta'lomidagi ahamiyati va uni O'zbekistonda amalga oshirish asoslari.....	445
<b>D.A.Raximjonova</b>	
Ingliz tilshunosligida kompyuter dasturiy ta'minot atamalarining tuzilish xususiyatlari. ....	448
<b>N.Sh.Mamadov</b>	
Amir Temur faoliyatining yoshlarni ma'naviy kamol toptirishdagi roli .....	453
<b>N.D.Djalilova</b>	
Talabalar kommunikativ kompetentsiyani takomillashtirish videomateriallari .....	456
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Sport turizmini rivojlantirishning tashkiliy va ijtimoiy-pedagogik asoslari .....	461
<b>O.T.Karimov, F.N.Nurqulov, A.T.Djalilov</b>	
Organik kislota tuzlari bilan modifikatsiyalangan polietilenni termik xususiyatlarini tadqiq etish .....	467
<b>R.N.Muminova</b>	
Madaniy o'simliklarni etishtirishda xlorelladan foydalanish .....	470
<b>A.E.Axtyamov</b>	
Reklama matnlarining pragmalingistik tahlilida tekstuallikning yetti mezoni .....	474
<b>N.V.Nosirov</b>	
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari .....	477
<b>F.Yuldashev</b>	
Abu Nasr Forobiys falsafasida aqliy bilish panteizmi .....	481
<b>Sh.Sh.Qosimova, M.M.Darmanov</b>	
In vitro texnologiyasi asosida maxalliy uzum navlarini ko'paytirish. ....	486
<b>S.H.Po'latov</b>	
Abu Homid al-G'azzolij va Ibn al-Arabiy diniy-falsafiy qarashlarida tasavvuf ta'llimotining rivojlanishi .....	490
<b>H.A.Sulaymonov</b>	
Xorijiy tillar grammatikasini o'qitishning umumnazariy masalalari xususida .....	494
<b>N.T.Mirzaxolov</b>	
Sun'iy intellekt – fan-texnika taraqqiyotining yuksak bosqichi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) .....	498
<b>G'.B.Samatov, S.Mo'minjonov</b>	
Ikki atomli gazlarda tebranma-ilgarilanma energiya almashinish ehtimolligini hisoblash .....	502
<b>R.Batirov</b>	
Chaqiriqqacha bo'lgan yoshlarda harbiy-amaliy jismoniy tayyorgarlik konseptual xususiyatlarini rivojlantirishning samarali shakl, metod va vositalari .....	508
<b>G.Kozlova</b>	
Kompetensiyaga asoslangan yondashuvni, ta'lim standartlari va tamoyillarini amalga oshirish zarurati .....	512
<b>V.Isaqov, X.Qoraboyev</b>	
<i>Indigofera tinctoria</i> o'simligi va tuproqdagi makroelementlarning o'zgarishi. ....	515
<b>R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva</b>	
Salomatlik konseptining lingvomadaniy talqini.....	521
<b>A.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	526
<b>N.R.Zakirova</b>	
Ta'lilda yangi texnologiyalarning ustunliklari.....	532
<b>I.Sharofutdinov</b>	
Ta'limdi axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida .....	535

**SALOMATLIK KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI****ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ПОНЯТИЯ ЗДОРОВЬЕ****LINGUISTIC INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF HEALTH**

**Ra'no Rafovna Sayfullaeva<sup>1</sup>, Nafisa Izatullayevna G'aybullayeva<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Ra'no Rafovna Sayfullaeva

<sup>2</sup>Nafisa Izatullayevna G'aybullayeva

– O'zbekiston milliy universiteti professori, f.f.d

– Buxoro davlat pedagogika instituti, dosenti, f.f.f.d  
(PhD)

**Annotasiya**

Ushbu maqolada konsept tushunchasi hamda unga berilgan ta'riflar, uning jahon va o'zbek tilshunosligida shakllanishi amalga oshirilgan tadqiqotlardan olingan misollar, fikr-mulohazalar va shuning bilan birgalikda konseptosfera hamda uning mohiyatiga alohida e'tibor qaratilgan. Salomatlik konsepti mazmuning milliy xususiyatlari lisoniy jihatdan talqin qilingan. Qolaversa ilmiy maqolada so'z, tushuncha va konseptning o'zaro aloqasi, ularning umumiy va alohidalik xususiyatlari haqida ham ayrim mulohazalar keltirib o'tilgan. Maqolada kasallik so'zi o'zining ma'nodosh (sinonimik) so'zlar qatoridan dominant so'z hisoblanishi, ushbu so'zlar jumlasiga nosog'lomlik, darmonsizlik, xastalik (bu so'zni qo'llashni shifokorlarga tavsiya etiladi), xastalik, dard, quvvatsizlik (holsizlik) kabi birliklar misollar orqali tahlilga tortildi. Salomatlik so'zining almashtiriladigan sinonimlari yo'qligi aniqlandi. Ular ma'nio jihatidan sezilarli farq qiladi. (o'zini his etish, holat) yoki yorqin stilistik bo'yqdorlikka ega (salomatlik, sog'liq). Salomatlik va kasallik so'zları "o'zini his etish" deb nomlangan semantik maydonga kiritilgan, unga yana yugorida sanab o'tilgan ularning sinonimlari va unga semantik yaqin bo'lgan birliklar, shuningdek "kasallikdan oldingi holat" tibbiy atamasi ham kiritilishi mumkin. "Salomatlik" konsepti borasida olib borgan izlanishlar natijasida ushbu tushuncha o'z atrofida kasal bo'imaslik, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, jismoniy sog'lilik, turmush tarzidan to'jaligicha qoniqish hosil qilish va yetuklik, bardamlik, fiziologik va biologik sog'lom hayot kabi konseptual birliklarni qamrab oladi, degan fikrlar maqolada izohga tortildi.

**Аннотация**

В данной статье особое внимание уделяется понятию понятия и данным ему определениям, его становлению в мировом и узбекском языкоznании. Национальные особенности содержания концепта здоровья интерпретируются лингвистически. Кроме того, научная статья содержит некоторые комментарии о взаимосвязи слов, понятий и понятий, а также об их общих и особенных признаках. В статье слово «болезнь» считается доминирующим словом среди его синонимичных (синонимических) слов, и к этим словам относятся «нездоровей», «нездоровий», «болезнь» (врачи рекомендуют использовать это слово), «болезнь». Такие единицы, как боль, слабость (слабость) были проанализированы на примерах. Выяснилось, что нет замещающих синонимов к слову здоровье. Они существенно различаются по смыслу. (чувство, состояние) или имеет яркую стилистическую окраску (здоровье, здоровье). Слова здоровье и болезнь входят в семантическое поле под названием «чувство», в которое также могут входить их синонимы, перечисленные выше и семантически близкие единицы, а также медицинский термин «предболезненное состояние». В результате исследования понятия «здоровье» это понятие включает в себя отсутствие болезней, здоровый образ жизни, духовно-нравственный образ жизни, физическое здоровье, полную удовлетворенность образом жизни и зрелость. В статье отмечено, что оно охватывает такие понятийные единицы, как выносливость, физиологический и биологический здоровый образ жизни.

**Abstract**

In this article, special attention is paid to the concept of the concept and the definitions given to it, its formation in the world and Uzbek linguistics. National features of the content of the concept of health are interpreted linguistically. In addition, the scientific article contains some comments on the relationship of words, concepts and concepts, as well as on their general and special features. In the article, the word "disease" is considered the dominant word among its synonymous (synonymous) words, and these words include "unhealthy", "unhealthy", "disease" (doctors recommend using this word), "disease". Units such as pain, weakness (weakness) were analyzed by examples. It turned out that there are no replacement synonyms for the word health. They differ significantly in meaning. (feeling, state) or has a bright stylistic coloring (health, health). The words health and disease are included in the semantic field called "feeling", which may also include their synonyms, the above-mentioned and semantically close units, as well as the medical term "premorbid state". As a result of the study of the concept of "health", this concept includes the absence of diseases, a healthy lifestyle, spiritual and moral lifestyle, physical health, complete satisfaction with lifestyle and maturity. The article notes that it covers such conceptual units as endurance, physiological and biological healthy lifestyle.

**Kalit so'zlar:** Konsept, konseptologiya, konseptosfera, tushuncha, so'z, tahlil, salomatlik, semantik, kasallik, kognitiv xususiyat, evfemizm.

**Ключевые слова:** Концепт, концептология, концептосфера, концепт, слово, анализ, здоровье, семантика, болезнь, когнитивный признак, эвфемизм.

**Key words:** Concept, conceptology, concept sphere, concept, word, analysis, health, semantics, disease, cognitive feature, euphemism.

## KIRISH

Dunyo tilshunosligining lingvopragmatika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika, diskursiv tahlil kabi yo'nalishlarida shaxs omili tadqiqot obyektining markazini tashkil etadi. Mazkur sohalarning yuzaga kelishi fanda insonni yanada chuqurroq o'rganish hamda lisoniy faoliyatni shaxs omili bilan uzviylikda yoritish harakatlari bilan bog'liqdir.

Bu esa konsept tushunchasi bilan bog'liq bir qator masalalarni ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Keyingi yillarda "konsept" atamasi tilshunoslik sohalarida tez-tez takrorlanishiga hamda ayrim lingvistik birliklarning konsept sifatida tadqiq qilish barobarida ko'plab olimlar tomonidan talaygina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lmoxdamiz. Ushbu tushuncha filologik ta'larning yangi yo'nalishlarida, ayniqsa, ko'p qo'llanilmoqda. Umuman olganda, konsept atamasini nafaqat tilshunoslik, adabiyotshunoslik, balki boshqa sohalarda ham qo'llash mumkin, biroq bu atama kognitiv tilshunoslikning asosiy kategoriyalardan biri sanaladi.

Zero, filologiyada konsept – narsa (keng ma'noda) belgining mazmun tomoni bo'lib, insoniyatning ijtimoiy tajribasida mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, ijtimoiy va sub'yektiv ravishda inson mavjudligining aqliy, ma'naviy yoki moddiy sohasi bilan bog'liq tushunchadir<sup>30</sup>. Konsept predmet – hodisaning his qilinishi, anglanilishi va obrazli tasavvur qilinishi bilan bog'liqdir.

Olam haqidagi muayyan tasavvurlarning hosil qilinishi ruhiy in'ikosning uch sathi – hissiy idrok, tasavvurlarning shakllanishi (eng sodda umumlashma va ma'lumotlar), nutq yasalishi jarayonlarining o'zaro ta'siri hosilasidir. Bu axborotlarning umumiyligindisi konseptlar tizimining mohiyatini tashkil qiladi<sup>31</sup>.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ham madaniy-ma'naviy, ham akseologik, ham ruhiy-falsafiy xususiyatlarni o'zida jamlagan mazkur tushuncha haqida olima D.Xudayberganova ham uning ko'p qirrali tuzilma ekanligini, konsept psixologik, kognitiv-semantik va lingvomadaniy xossalib bo'lib, ushbu jihatlarni nutqiy bosqichda bir vaqtning o'zida namoyon etishini<sup>32</sup> tadqiqotlarida e'tirof etadi.

Milliy konceptual sohaning negizini tashkil etuvchi asosiy konseptlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olimlarni konseptlarda aks etgan madaniy qadriyatlarni tizimlashtirishning yangi darajasiga olib chiqish va madaniyat konseptuariyasi yaratish miqyosigacha olib chiqmoqda<sup>33</sup>. Darhaqiqat, antropologik ahamiyatga ega tushunchalarning ro'yxatini to'ldirayotgan ijtimoiy-madaniy jihatdan talab qilinayotgan konceptual mohiyatlarni o'rganish ustuvor bo'lib qolmoqda. Milliy konceptual sohaning mental mohiyatli tushunchalari jumlasiga har qanday madaniyatning asosiy, antropologik jihatdan ahamiyatli tushunchasi hisoblangan *salomatlik* konsepti ham kiradi. Aynan, "u orqali inson dunyonni ko'ra oladi"<sup>34</sup>.

Falsafa nuqtai nazaridan salomatlik – bu tana va uning qismlari, tana va atrof-muhit, tana va ruhning mutlaq uyg'unligini o'zida aks ettirsa, kasallik – bu uyg'unlikning buzilishi holatlarini ifodalaydi. Salomatlik va kasallikning jahon tibbiyotida shakllantirilgan to'rtta asosiy konsept mavjud. 1) salomatlik – kasallikning yo'qligi; kasallik – inson organizmida paydo bo'lgan hamda shu bilan birga unga yot bo'lgan hayotning organik shakli, 2) salomatlik – me'yor, kasallik esa – me'yordan og'ish; 3) salomatlik – bu barcha organlar va ularning tizimlarining to'g'ri ishlashi, kasallik esa bunday faoliyatdagи buzilishlar; 4) Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining 1946 yilgi Nizomiga muvofiq salomatlik – "nafaqat kasalliklar yoki jismoniy nuqsonlar yo'qligi emas, balki to'liq

<sup>30</sup> Xudayberganova D.S. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol.fan. d-ri ... diss. avtoref. – Toshkent, 2015. – B.19.

<sup>31</sup> Антология концептов : в 8 т. / под ред. В. И. Карасика, И. А. Стернина. – Волгоград : Парадигма, 2005; Степанов Ю. С. Константы : Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. – изд. 3-е, испр. и доп. – Москва : Академический Проект, 2004. – 982 с. и др.

<sup>32</sup> Лурье С. В. Психологическая антропология : история, современное состояние, перспективы / С. В. Лурье. – 2-е изд. – Москва : Академический проект : Альма Матер, 2005. – С. 587

<sup>33</sup> Устав (Конституция) Всемирной организации здравоохранения (от 22 июля 1946 г) // [www.pravo.kulichki.com](http://www.pravo.kulichki.com)

<sup>34</sup> <https://yuz.uz/news/salomatlik-ilmi>

jismoniy, ruhiy va ijtimoiy farovonlik holati"<sup>35</sup>. Salomatlik deganda insonning ijtimoiy funksiyalarini to'liq bajarishi va jamoat hayotida faol ishtirok etish qobiliyati, kasallik deganda esa inson faoliyati erkinligini cheklaydigan holat tushuniladi. Antropologiyada salomatlik va kasallikni tushunishda quyidagi variantlarni ajratish mumkin:

Salomatlik: 1) xudo bergan ne'mat, 2) yaxshiliklar uchun mukofot, 3) inson tanasining me'yoriy holati 4) qalbni bo'shashtiradigan holat;

Kasallik – 1) insonning axloqiy tubanligining natijasi; 2) xatolar uchun jazo; 3) sinov; 4) gunohlardan poklanish va ulardan qutulish vositasi; 5) xavotirli belgi bildirish.

Faylasuflar, tabiblar va shifokorlar tomonidan salomatlik va kasallik hodisalarining yuqorida keltirilgan talqinlari ularning anglanishi va nutqda ifodalanishini lingvistik tadqiq qilish uchun zarur dalil va asos bo'lib xizmat qiladi.

XXI asr oxiri XXII asr birinchi yarmida jahonda sodir bo'layotgan tub iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar, shubhasiz, lisoniy shaxs konseptual dunyosining o'zgarishiga sabab bo'lmay qolmaydi. Birinchi navbatda, siyosiy yoki iqtisodiy konseptlarga taalluqli bo'Imagan *salomatlik* konsepti ham mazmuniy modifikasiyalanishga yuz tutmoqda. Aytish mumkinki, bugun til sohibi tashuvchisining ongida ona tili konseptual sohasining qayta qurilishi, to'ldirilishi kuzatilmogda: *salomatlik* eng yangi ijtimoiy-madaniy me'yorlar ta'siri ostida namunaviy tarzda idrok etilmogda. Bu esa *salomatlik* konsepti mazmunining milliy xususiyatlarini lisoniy jihatdan talqin qilish zaruratinib belgilaydi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Shu o'rinda aytish mumkinki, o'zbek madaniyatida mavjud *salomatlik* konsepti ham o'ziga xos kognitiv xususiyatlarga ega.

Hindistonliklar "Ayurveda"sining asosiy tamoyili inson ongingin tanaga ta'sir o'tkazishiga asoslanadi. Kasallikdan xalos bo'lish odamning o'z ongi bilan muloqotga kirishib, uni muvozanatga keltira olishiga bog'liq<sup>36</sup>. "Avesto"da "Tibbiyot – bu tanani sog'lom holatda saqlash san'atidir", deb yozilgan. Buyuk vatandoshimiz Abu Ali ibn Sinoning mashhur "Tib qonunlari" asari salomatlikni saqlash va mustahkamlash g'oyalari asosida yozilgan. Alloma insonlar o'zini o'rab turgan atrof-muhit bilan muloqotda bo'lishini va tashqi muhit omillari, o'z navbatida, uning salomatligiga ta'sir qilishini ta'kidlab o'tgan. Ulug' hakim salomatlikni saqlashda jismoniy faoliyot muhimligini alohida qayd etib, tartibli hayot tarzi omili sifatida jismoniy mashqlar, ovqatlanish tartibi va uyquni qayd etgan. U bunday yozadi: "Me'yorida va o'z vaqtida jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadigan inson hech qachon davolanishga muhitoj emas". Prezidentimizning e'lon qilingan "Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida ham sog'lom turmush tarzini hayotga keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirishning asosiy yo'naliшlarini belgilab berdi. "To'g'ri ovqatlanish va jismoniy faoliyot orqali qanchadan-qancha kasalliklarning oldini olish, insonlar hayotini saqlab qolish mumkinligini barcha tushunishi kerak", deya ta'kidlandi. Kasalliklarning oldini olish, gipodinamiya-kamharakatlikka qarshi ommaviy kurashish, aholi keng qatlami, ayniqsa, yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga jalb etish salomat bo'lish va uzoq umr ko'rishning muhim omillaridan sanaladi.

Darhaqiqat, tahlil qilinayotgan *salomatlik* konsepti "biz"dan chiqib ketib, "men" qadriyatiga aylanganligini qayd etish mumkin. Globallashuv sharoiti, 2019 yilda boshlangan pandemiya davrida inson o'z salomatligi ustida har qachongidan qayg'uradigan bo'ldi. Zero Islom dini sog'liqni saqlashning yo'llarini ham o'rgatadi. Bu borada dinimizda badantarbiyaga, tozalikka rioya qilishga, sog'liqqa zarar yetkazuvchi va atrofni iflos qiluvchi narsalardan chekinishga, jismni toliqtirishdan qaytarishga sog'liqni saqlash maqsadida yengillik va ruxsatlar berilishi kabi bir qator muhim ishlar yo'liga qo'yilgan<sup>37</sup>.

Matnlar tahlilining ko'rsatishicha, sog'lom odam haqidagi individual va jamoaviy tasavvurlarning tabiatini o'zgargan: zamонавиy kishi o'z sog'lig'i uchun javobgar ekanligini biladi: **Tortinmang va dangasalik qilmang – bu sizning sog'lig'ingiz masalasidir, Inson o'zi uchun nima zararli va salomatligi uchun nima foydali bo'lgan narsalarni o'zi belgilashi kerak kabi.**

<sup>35</sup> <https://muslimaat.uz/maqola/1238>

<sup>36</sup> Тихонов А.Н. Словообразовательный словарь русского языка: В 2-х т. М., 1985

\* 1978-1979-yillarda Isroi bilan imzolangan "Kemp-Devid" shartnomasidan so'ng arab va islom dunyosida yakkalanib qolgan Misr 1984-yilda Islom konferensiysi tashkiloti, 1989-yilda esa Arab davlatlari uyushmasi (ADU)ga a'zoligi tiklandi. 1991-yilda ADU shtab-kvartirasi Tunisdan Qohiraga qaytarildi.

Rivojlanayotgan iqtisodiyot sharoitida salomatlik bilan bog'liq, nutqda u bilan birga voqelanadigan **g'amxo'rlik** tushunchasi ma'nosi ham kengaydi. Salamatlik va uni himoya qilishga ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'lishning ahamiyati dolzarb bo'lib qolmoqda: o'z sog'lig'iga e'tibor; sog'lig'iga befarq emas; sog'lig'i bilan shug'ullanish; sog'lig'ini qo'llab-quvvatlash; salomatligini yaxshilash, sog'ligi haqida qayg'urish, g'amxo'rlik qilish va boshqalar.

"Salamatlik" konsepti borasida olib borgan izlanishlar natijasida ushbu tushuncha o'z atrofida kasal bo'lmaslik, sog'lom turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy turmush tarzi, jismoniy sog'lik, turmush tarzidan to'laligicha qoniqish hosil qilish va yetuklik, bardamlik, fiziologik va biologik sog'lom hayot kabi konseptual birliklarni qamrab oladi, degan xulosaga kelish mumkin. Demak, biror so'zni konseptual tahlilga tortishda, dastlab, uning lisonda paydo bo'lgan voqelanishi tushuncha deb qaraladigan bo'lsa, chuqurroq kognitiv talqin qilinganda uning yanda ko'proq mazmuni namoyon bo'laveradi. Konsept so'zni shunchaki anglatgan ma'nosiga qarab emas, uning borliqda ifodalanadigan barcha tushunchalarini, inson idroki bilan bog'liq jihatlarini, zidlik ma'nolarini kognitiv talqinda tahlil etadi. Masalan "salamatlik" konsepti o'ziga zid turgan "kasallik" konsepti mazmun mohiyati bilan ham yonma-yon turadi. Kasallik semasini nutqiyl muloqotda ifoda etuvchi rang nomlari bilan bog'liq fiziologik xolatni bildiruvchi fe'l so'z turkumlari ham bunga misol bo'la oladi. Qizarmok, gezarmok, bo'zarmok, siniqmoq, qonlanmoq, lovullamoq, oqarmoq, qoraymoq, ko'karmok, sarg'aymoq, zahillashmoq kabi mantiqiy ifodasiga ega holat fe'llari insonga, uning yuz, ko'z, quloq, lab, burun, qosh, bosh, soch, soqol, bo'yin kabi a'zolariga xos ayni belgining holati sifatida anglatadi. Ular kasallik, dard, qo'rquv, qattiq iztirob, keksalik, betoblik natijasida insonda yuzaga kelgan fiziologik o'zgarish holatini bildirishi bilan muhimdir. Bu o'zgarish asosida inson a'zolarining ichki va tashqi ta'sirlarga bo'lgan "ijobiyl va salbiy munosabati" yotadi. Inson salomatligi, turmush tarzi bilan bog'liq bu ikkala hodisa ham tafakkur birligi sifatida namoyon bo'ladi. Bularning ikkalasining ham boshlang'ich nuqtasi inson jismoniy va ruhiy holatiga obrazli ta'sir qilinishiga bog'liq.

Shuningdek, tadqiqot doirasida salamatlik va kasallik substantivlari va ularning so'z hosil qilish uyalariga kiritilgan so'zlarning leksikografik talqinlari tahlil qilindi, o'rganilayotgan leksemalarning etimologiyasi hamda ularning sinonimlari o'rganildi.

Izohli lug'atlarni tahlil qilish natijasida salamatlik (sog'liq) so'zi uchun quyidagi leksikografik semantik invariantlar (LSI) aniqlandi: 1) "barcha tana a'zolar faoliyatining me'yorda bo'lishi"; 2) "kasallikning yo'qligi"; 3) "o'zini yaxshi his qilish holati" yoki aksincha, kasallik so'ziga quyidagi LSllarni ajratish mumkin: 1) "tananing to'g'ri faoliyatining buzilishi", 2) "biror narsanining yetishmovchiligi yo'nalishi bo'yicha ham, ortiqchaligi yo'nalishi bo'yicha ham me'yordan og'ish".

Salamatlik substantivining lug'aviy ta'riflariga anqlik darajasi yuqori bo'lgan leksemalar kiradi: holat, tartib, faoliyat, harakat, jarayon, faoliyat, muvozanat, me'yor, organizm, kasallik (uning yo'qligi sifatida). Buzilish, o'zgarish, og'ish, jarohatlanish, nogironlik kabi so'zlar kasallik nomlarining metatil birliklari hisoblanadi.

## XULOSA

Kasallik so'zi o'zining ma'nodosh (sinonimik) so'zlar qatoridan dominant so'z hisoblanadi, ushbu so'zlar jumlasiga nosog'lomlik, darmonsizlik, xastalik (bu so'zni qo'llashni shifokorlarga tavsiya etiladi), xastalik, dard, quvvatsizlik (holsizlik) kabi birliklar kiradi. Salamatlik so'zining almashtiriladigan sinonimlari yo'q: ular ma'no jihatidan sezilarli farq qiladi (o'zini his etish, holat) yoki yorqin stilistik bo'yoqdorlikka ega (salamatlik, sog'liq). Salamatlik va kasallik so'zları "o'zini his etish" deb nomlangan semantik maydonga kiritilgan, unga yana yuqorida sanab o'tilgan ularning sinonimlari va unga semantik yaqin bo'lgan birliklar, shuningdek "kasallikdan oldingi holat" tibbiy atamasi ham kiritilishi mumkin.

So'zlarni derivation jihatdan tahlil qilishdan maqsad – bu sog'liq va kasallik so'zlarini semalarini aniqlashdir. A. N. Tixonov<sup>38</sup> lug'atiga ko'ra, salamatlik so'zi sog'lom so'zining so'z hosil qilish uyasiga kiritilgan. Mazkur uyani tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha bir o'zakli so'zlarning eng barqaror oilalari "ijobiyl baholash" va "normaga muvofiqlik" (sog'lom tanqid, sog'lom munosabatlar) kabi semalarini o'z ichiga olishi kerak. "Organizm" semasiga kelsak, sifatning majoziy ma'nosida

\* Ekstraditsiya - xalqaro huquqda jinoyat sodir qilgan shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish yoki unga nisbatan chiqarilgan sud hukmini ijro etish uchun bir davlatdan ikkinchi davlatga berish. Jinoyatchini berish shartlari va tartibi xalqaro shartnoma va milliy qonunchilik bilan belgilanadi.

quyidagi ma'nolarning qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi: sog'lom hayot, sog'lom iqtisodiyot kabi sintagmalardagi "odam" semasi nafaqat saqlanib qoladi, balki takrorlanadi, zero maishiy hayot shaxs hayotining ijtimoiy parametridir va iqtisodiyot butun jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlariiga xosdir. Kasallik substantivi, A. N. Tixonov lug'atiga ko'ra, og'riq so'zining so'z hosil qilish uyasiga kiritilgan. Ushbu uyadagi barcha so'zlarini birlashtiradigan eng barqaror sema bu "me'yordan og'ish" (og'riq – "me'yordan oshib ketadigan tuyg'u"; kasal (odam) – "ayniqsa qimmatli, boshqalar kabi bo'limgan"; kasallik – "tana normal ishlashining buzilishi"; og'riqli (ko'chma, majoziy ma'noda) – "ortiqcha"). Ma'nuning eng zaif komponenti 'organizm' semasi bo'lib qoladi, chunki uyaning barcha so'zlari ham tanaga xos, ham ruhiy azoblarni ifodalash uchun ishlatalishi mumkin.

Demak, yuqoridagilardan anglashiladiki, *salomatlik* konsepti ko'r o'lchovli tavsifga ega bo'lib, ushbu konsept kognitiv xususiyatlarining mazmuni turlicha namoyon bo'ladi. Salomatlik tushunchasi – bu kundalik ongda organizmning ikki tomonlama (jismoniy va aqliy) holati haqidagi g'oyalarni aks ettiradigan ko'r o'lchovli hodisa, u tashqi kuzatuvchi, shuningdek, o'z ichki holati tashuvchisi bo'lgan sub'yeqtning o'z-o'zini idrok etishi nuqtai nazaridan baholanadi. Darajali xarakterga ega bo'lgan konseptning noagentiv tabiatini tarkibidagi salomatlikka ta'sir qiluvchi tashqi omillar guruhiga tegishli kognitiv xususiyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Маслова В.А. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд, 2011. – Б. 8.
2. Худайберганова Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол.фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.19.
3. Антология концептов : в 8 т. / под ред. В. И. Карасика, И. А. Стернина. –Волгоград : Парадигма, 2005; Степанов Ю. С. Константы : Словарь русской культуры / Ю. С. Степанов. – изд. 3-е, испр. и доп. – Москва : Академический Проект, 2004. – 982 с. и др.
4. Лурье С. В. Психологическая антропология : история, современное состояние, перспективы / С. В. Лурье. – 2-е изд. – Москва : Академический проект : Альма Матер, 2005. – С. 587
- 5.<https://yuz.uz/news/salomatlilik-ilmi>
- 6.<https://muslimaat.uz/maqola/1238>
- 7.<https://ru.wikipedia.org/wiki/>
- 7.<https://ru.wikipedia.org/wiki/>